

A. Kvadrat tenglama

Vaqt bo'yicha cheklov: 2 sekund
Xotira bo'yicha cheklov: 64 megabayt

Berilgan a , b , c sonlar uchun $ax^2 + bx + c = 0$ tenglamaning yechimlarini ikki xona aniqlikda chiqaring.

Kiruvchi ma'lumotlar:

Birinchi qatorda butun a , b , c sonlar ($0 < a, b, c \leq 100$) orasida bitta probel bilan beriladi.

Chiquvchi ma'lumotlar


Tenglama 2 ta yechimga ega bo'lsa avval kichigini keyin kattasini probel bilan ajratgan holatda, bitta yechimga ega bo'lsa shu yechimning o'zini, yechimga ega bo'lmasa "no" so'zini chiqaring.

Kiruvchi ma'lumotlar	Chiquvchi ma'lumotlar
1 3 2	-2.00 -1.00
1 2 1	-1.00
1 1 1	no

B. Fizika

*Vaqt bo'yicha cheklov: 2 sekund
Xotira bo'yicha cheklov: 64 megabayt*

Abror ukasi Ahror bilan urushib qoldi. Shuning uchun ukasi Ahrorning o'yinchoq'ini balkondan uloqtirib yubormoqchi. Abror ukasini o'yinchoqqa tez yetib borishini istamaydi, shuning uchun u iloji boricha uzoqroqqa uloqtirmoqchi. Abror o'yinchoqqa eng ko'pi bilan v (m/s) tezlik bera oladi. Futbol to'pi uloqtirilayotgan paytda yerdan h (m) uzoqlikda bo'ladi. Siz Abrorga futbol to'pini uzog'i bilan qancha masofaga uloqtira olishini aniqlab bering($g = 9.8$).



Kiruvchi ma'lumotlar:

Bitta qatorda ikkita butun son v va h ($1 \leq v, h \leq 100$) berilgan.

Chiquvchi ma'lumotlar

Abror futbol to'pini uzog'i bilan qancha metr masofaga(L) uloqtira olishini, verguldan keyin 2 ta son aniqlikda chiqaring.

Kiruvchi ma'lumotlar	Chiquvchi ma'lumotlar
66 13	107.50
5 38	13.92
43 78	171.56

C. To`g`ri to`rtburchak va aylana

*Vaqt bo'yicha cheklov: 2 sekund
Xotira bo'yicha cheklov: 64 megabayt*

To`g`ri to`rtburchakning a va b tomonlari berilgan. Shu to`g`ri to`rtburchakning ichiga chizish mumkin bo`lgan eng katta aylananing yuzini toping. $\pi = 3.14$

Kiruvchi ma'lumotlar:

Birinchi satrda a va b butun sonlar berilgan ($0 < a \leq b \leq 1000$);

Chiquvchi ma'lumotlar

Yuqorida so`raglan aylananing yuzini nuqtadan keyin 2 ta xona aniqlikda

Kiruvchi ma'lumotlar	Chiquvchi ma'lumotlar
140 245	15386.00
63 218	3115.67

D. Teskarison

*Vaqt bo'yicha cheklov: 2 sekund
Xotira bo'yicha cheklov: 64 megabayt*

Berilgan N soniga teskari sonni ekranga chiqaring.

Kiruvchi ma'lumotlar:

Birinchi qatorda N ($0 < N \leq 10^9$) soni berilgan.

Chiquvchi ma'lumotlar

Berilgan songa teskari sonni ekranga chiqaring.

Kiruvchi ma'lumotlar	Chiquvchi ma'lumotlar
123	321
1000	1

E. Soat

*Vaqt bo'yicha cheklov: 2 sekund
Xotira bo'yicha cheklov: 64 megabayt*

Maqsadalining kompyuteri soat vaqtini quyidagi formatda chiqaradi: hh:mm. n
minutdan keyingi vaqtni chiqaring.

Kiruvchi ma'lumotlar:

Birinchi qatorda vaqt hh:mm formatda berilgan ikkinchi qatorda n ($0 \leq n \leq 10^{18}$) soni berilgan.

Chiquvchi ma'lumotlar

Vaqtning n minutdan keyingini holatini berilgan formatda chiqaring.

Kiruvchi ma'lumotlar	Chiquvchi ma'lumotlar
23:59 2	00:01
10:00 1000	02:40

F. Massiv

*Vaqt bo'yicha cheklov: 2 sekund
Xotira bo'yicha cheklov: 64 megabayt*

Berilgan massivdan shunday qism massivni topingki ,uzunligi L bo'lsin ,va shunday massivlar orasida yig'indisi eng katta bo'lsin.

Kiruvchi ma'lumotlar:

Birinchi qatorda n (massivning uzunligi) va l beriladi($0 < l \leq n \leq 1000$). Keyingi qatorda n ta butun son $a[i]$ ($a[i] \leq 10000$), massivning elementlari beriladi;

Chiquvchi ma'lumotlar

So'raglan qism massivni ekranga chiqaring.

Kiruvchi ma'lumotlar	Chiquvchi ma'lumotlar
4 3 1 2 3 4	2 3 4
2 1 1 2	2

G. O`xshash satrlar

*Vaqt bo'yicha cheklov: 2 sekund
Xotira bo'yicha cheklov: 64 megabayt*

Berilgan ikki satrni o`xshashlikka tekshiring. Ikki satr o`xshash deyiladi, agar ularning har bir i – simvoli bir xil bo`lsa (misol uchun `a` va `A` ham bir xil harflardir). Masalan, `UzbeKistan` va `uzBeKIStaN` satrlari o`zshash hisoblanadi.

Kiruvchi ma'lumotlar:

Birinchi va ikkinchi qatorda uzunliklari teng bo`lgan ikkita satr beriladi. Satrlar bo`sh emas va uzunliklari 100 dan oshmaydi.

Chiquvchi ma'lumotlar

Agar ikkita satr o`xshash bo`lsa "YES" (qo`shirnoqsiz) so`zini chiqaring. Aks holda "NO" (qo`shirnoqsiz) so`zini chiqaring.

Kiruvchi ma'lumotlar	Chiquvchi ma'lumotlar
UzbeKistan uzBeKIStaN	YES
ALLO allo	YES

H. M harfi

*Vaqt bo'yicha cheklov: 2 sekund
Xotira bo'yicha cheklov: 64 megabayt*

Ahmadjon va Maqsadali Jahon Chempionatiga hujjatlarni to'g'irlash davomida Ahmadjonning familiyasi bilan Maqsadalining ismining bosh harflari bir xil ekanligini ya'ni "M" harfidan boshlanganligini sezib qolishdi. Ular "M" harfiga qiziqib qolishdi. Ikkalasi "M" harfining har xil kattalikda chiqaruvchi dastur tuzmoqchi. Lekin Maqsadali va Ahmadjonlarning laboratoriya ishlaridan boshqa narsaga vaqti bo'lmayapti. Siz ularga yordam bering.

Kiruvchi ma'lumotlar:

Birinchi qatorda $n(1 < n \leq 100)$ soni berilgan.

Chiquvchi ma'lumotlar

Balandligi n ga teng "M" harfini chiqaring.

Kiruvchi ma'lumotlar	Chiquvchi ma'lumotlar
2	** ** * ** *
3	** ** * * * * * ** *